

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI



BAKALAVRIATNING 5230100 – IQTISODIYOT (TARMOQLAR VA SOHALAR
BO'YICHA) YO'NALISHI BITIRUVCHI KURS TALABALARI UCHUN IQTISOSLIK
FANLARIDAN FANLARARO DAVLAT ATTESTATSIYASI

DASTURI

Bilim sohasi:	200000	- Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lif sohasi:	230000	- Iqtisod
Ta'lif yo'nalishi:	5230100	- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

FARG'ONA- 2024

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida NIZOM" (hozirga qadar mazkur Nizomga bir necha bor o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, 2018-yil 7-noyabrdagi 26-sonli buyrug'iga binoan so'nngi o'zgarish bo'lgan)ga asosan ishlab chiqildi.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra "Iqtisodiyot va servis" kafedrasini bo'lib, dastur kafedraning 2024-yil 05.01 dagi 5-yig'ilishida muhokama qilingan hamda Iqtisodiyot fakultetning 2024-yil 26.09 dagi Kengashida ma'qullangan. Universitet kengashining 2024-yil 30.09 dagi 6-sonli yig'ilishida tasdiqlangan

Tuzuvchilar: A.Mirzaev – Iqtisodiyot va servis kafedrasini mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
G. Xonkeldiyeva - Iqtisodiyot fakulteti dekani,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.To'xtasinova - Iqtisodiyot va servis kafedrasini
dotsenti, PhD.
A.Mirsodiqov – Iqtisodiyot va servis kafedrasini katta
dotsenti, PhD

Taqrizchilar: N.Jo'rayeva – Jahon va mintaqaga iqtisodiyoti kafedrasini
mudiri, i.f.f.d., dotsent
A.Oripov – "Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy
tahlil" kafedrasini mudiri, i.f.f.d., dotsent

KIRISH

Mazkur dastur 5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo`yicha) yo`nalishi bitiruvchilarining to`rt yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o`qib o`zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o`tkaziladigan Yakuniy Davlat Attestatsiyasi sinovlari bo`yicha ishlab chiqilgan.

2023/2024 o`quv yilida bitiruvchilarda O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2018-yil 25-avgustda 744-son bilan tasdiqlangan o`quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o`tkaziladi.

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI O`TKAZILADIGAN FANLAR TARKIBI:

1. Iqtisodiyot nazariyasi (umumkasbiy fanlar)
2. Mikroiqtisodiyot (umumkasbiy fanlar)
3. Menejment (ixtisoslik fanlari)
4. Marketing (ixtisoslik fanlari)
5. Makroiqtisodiёт (ixtisoslik fanlari)

1. “IQTISODIYOT NAZARIYASI” FANINING MAZMUNI

Iqtisodiyot tushunchasi va turlari. Iqtisodiy faoliyatning mazmuni. Takror ishlab chiqarishning mazmuni va fazalari: ishlab chiqarish, taqsimot, ayrboshlash, iste'mol. Ehtiyojlarning mazmuni va ularning turkumlanishi. Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni. Iqtisodiy resurslarning mazmuni va turkumlanishi. Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlarning qondirilish darjasи o`rtasidagi bog'liqlik. Iqtisodiyot oldidagi muammolar.

Iqtisodiyotga oid bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi. Qadimgi Sharq va G'arb xalqlaridagi iqtisodiy g'oyalar. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishidagi asosiy oqimlar: merkantilizm, fiziokratlar, ingлиз klassik iqtisodiy muktabi, marksizm va marjinalizm. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti to'g'risida turlicha yondashuvlar. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti. Iqtisodiy hodisa va jarayonlar. Moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining vazifalari. Iqtisodiyot nazariyasining boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Iqtisodiyot nazariyasi - barcha iqtisodiy fanlarning uslubiy poydevori va davlat iqtisodiy siyosatining ilmiy asosi ekanligi. Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurining shakllanishida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini tahlil qilish va bilishda iqtisodiyot nazariyasi fanining roli. Iqtisodiyot nazariyasi fanining talaba-yoshlar ongida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda va milliy istiqlol g'oyasini singdirishdagi ahamiyati.

Iqtisodiy qonunlar va kategoriylar. Iqtisodiy qonunlarning turkumlanishi.

Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni bilish usullari: iqtisodiy qonunlar, hodisalar va jarayonlarni ilmiy bilishning dialektik qoidalari, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, ikki tomonlama yondashuv, empirik usul va farazlardan foydalanish. Mikro va makroiqtasodiy tahlil. Iqtisodiy tahlilda matematik, statistik va grafik usullardan foydalanish. Pozitiv va normativ usullar. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma'ruzalarini va O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini o'rganishning ilmiy uslubiy ahamiyati.

Ishlab chiqarish jarayoni va uning natijalari. Ishlab chiqarishning ahamiyati to'g'risidagi turli muktab vakillarining fikr va qarashlari. Ishlab chiqarish omillari va ularning turkumlanishiga turlicha yondashuvlar. Ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi va bir-birining o'rnini bosishi.

Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni va uning iqtisodiy asoslari. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi. Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni. Qisqa va uzoq davrdagi ishlab chiqarish. Ishlab chiqarishning jamiyat hayotidagi ahamiyati. Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning o'zaro bog'liqligi. Tovar va xizmatlar nafliligi va qiymatining yaratilishida ishlab chiqarish omillarining roli.

Ishlab chiqarishning umumiy va pirovard natijalari. Yalpi ijtimoiy mahsulot – takroriy hisob. Oraliq mahsulot, pirovard mahsulot, qo'shilgan mahsulot, sof mahsulot. Zaruriy va qo'shimcha mahsulot. Qo'shimcha mahsulot normasi va massasi. Qo'shimcha mahsulotning zarurligi va ahamiyati. Ishlab chiqarish funksiyasi. Umumiy, o'rtacha va so'nggi qo'shilgan mahsulot, ularni hisoblash tartibi. So'nggi qo'shilgan omil unumdorligi. Unumdorlikning pasayib borish qonuni.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari tushunchasi. To'la bandlik. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i. Muqobil xarajatlar. FTT va ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasining kengayishi. O'zbekistonda 2022-2026 yillarda yuqori texnologiyali qayta ishslash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini "chuqur qayta ishslash" asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish.

Ishlab chiqarish samaradorligi. Iqtisodiy resurslarni tejash qonuni. Mehnat unumdorligi va unga ta'sir qiluvchi omillar. Samaradorlikni belgilovchi ko'rsatkichlar tizimi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari: FTTning evolyusion va revolyusion shakllari, mamlakatimizda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, modernizasiyalash va diversifikasiya qilish jarayonlarining davom ettirilishi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ma'ruzalarida va O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi va uning sabablari. Ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosati.

Ijtimoiy-iqtisodiyot taraqqiyot bosqichlarini bilishga turli xil yondashuvlar: tarixiy-formasion, madaniylashish (tsivilizasiya) darajasi, texnika va texnologik darajasi, iqtisodiy tizimlar o'zgarishi jihatidan yondashuv. Jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari. Ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqarish usuli. Ijtimoiy-iqtisodiy formasiya. Tsivilizasiyaning tarixiy rivojlanish tiplari. Tsivilizasiyalarning almashuvi nazariyasi. Ishlab chiqarishning texnologik usuli. Oddiy kooperasiya, manufakturna va yirik mashinalashgan ishlab chiqarish. Industrlashishgacha bo'lgan jamiyat, industrlashgan jamiyat, yuqori industrlashgan (axborotlashgan) jamiyat.

Iqtisodiy tizim tushunchasi. Iqtisodiy tizim modellari: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy-buyruqbozlik Iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyotining bosqichlari: erkin raqobatga asoslangan va hozirgi zamон bozor iqtisodiyoti. Mulkchilik munosabatlarining iqtisodiy mazmuni. Mulk ob'ekti va sub'ekti. Mulkchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlari. Mulk shakllarining tasniflanishi. Davlat mulki, jamoa mulki, shaxsiy mulk, xususiy mulk va aralash mulk.

Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulkchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari.

Iqtisodiyotni isloh qilishda mulkchilikning o'rni. Mulkchilik shakllarini o'zgartirish usullari: milliylashtirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari. O'zbekiston Respublikasida mulkchilikni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish bosqichlari.

2017-2021 yillarda davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'ektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash.

Ijtimoiy xo'jalik shakllari. Natural va tovar ishlab chiqarishning belgilari va farqlari. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablari. Turli iqtisodiy maktab vakillarining natural va tovar ishlab chiqarish to'g'risidagi nazariyalari.

Tovar va uning xususiyatlari. Tovarning nafliligi va ayirboshlanish qobiliyati (qiymati). Tovar qiymatining miqdori. Individual va ijtimoiy zaruriy naflilik. Individual va ijtimoiy-zaruriy mehnat sarflari. Ijtimoiy-zaruriy ish vaqt. Mehnatning ikki yoqlama tavsifi: aniq mehnat va abstrakt mehnat. Mehnat unumdorligi va intensivligining tovar qiymati mikdoriga ta'siri.

Qiymatning mehnat nazariyasi. Qiymat qonuni. Tovar qiymati va narxining o'zaro farqlanish shart-sharoitlari. Keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasi. Umumiy va aniq naflilik.

Naflilikning pasayib borishi. Qiymatning mehnat nazariyasi va keyingi qo'shilgan miqdor nafliligi nazariyasining o'zaro aloqasi hamda bir-birini to'ldirishi. Qiymat paradoksi.

Pulning kelib chiqishi va mazmuni. Pulning rasionalistik va evolyusion kontsepsiyalari. Qiymat shakllari. Pul to'g'risidagi metallistik, nominalistik va miqdoriy nazariyalar. Pulning asosiy vazifalari: qiymat o'lchovi, muomala vositasi, jamg'arish vositasi, to'lov vositasi. Narxlar o'lchovi (masshtabi). Hozirgi zamon pulining tabiatи va mazmuni. Oltin va qog'oz pullarning o'zaro bog'likligi. Naqd va kredit pullarning xususiyatlari.

O'zbekistonda milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi bosqichlari va ularning ahamiyati. Milliy valyuta barqarorligini oshirish vazifalarini hal etish borasidagi dasturlar.

Bozor iqtisodiyotining mazmuni va uning rivojlanishi. Bozor iqtisodiyotining sub'ektlari: uy xo'jaliklari, tadbirkorlik sektori, davlat sektori va bank. Bozor Iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor tizimining o'z-o'zini tartibga soluvchi mexanizmi. Klassik va hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti, ularning umumiy tomonlari va farqlari. Zamonaqiy bozor xo'jaligi modellari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida doimiy muammolarni hal qilish va resurslardan samarali foydalanish yo'llari.

Bozor iqtisodiyotining afzallikkari. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi. Iqtisodiy faoliyat va tanlov erkinligi. Iqtisodiy sub'ektlar harakatining ta'minlanishi. Bozor iqtisodiyotining boshqa ijobjiy jihatlari. Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlari va salbiy jihatlari.

"Bozor" va "bozor iqtisodiyoti" tushunchalarining o'zaro farqlanishi. Bozorning mazmuni va asosiy belgilari. Bozor mexanizmi. Bozorning ob'ektlari va sub'ektlari. Bozorning vazifalari. Bozorning turkumlanishi. Resurslar, mahsulotlar va daromadlarning doiraviy aylanishi.

Bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi muassasalarini guruhlash yo'nalishlari. Bozor infratuzilmasi tarkibi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining mazmuni. Bozor iqtisodiyotiga o'tish – barcha mamlakatlarga xos umumiy jarayon. Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'llari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning revolyusion va evolyusion shakllari. Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishning xususiyatlari. O'tish davrida bozor iqtisodiyotini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.

O'tish davri iqtisodiyotining asosiy belgilari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy modellari. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.Karimovning bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning "o'zbek modeli", uning tamoyillari va xususiyatlari. O'zbek modelida hozirgi davrdagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirlaridan himoya vositasining mujassamlashganligi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichlari.

Iqtisodiy islohotlarning mazmuni. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish kontsepsiyasi va strategiyasi hamda asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va ularning vazifalari. O'zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlari.

Mamlakatni modernizasiyalash jarayonining mazmuni va uning bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlashdagi roli. Modernizasiyalash jarayonining tamoyillari, asosiy belgi va tarkibiy qismlari. Hozirgi davrda O'zbekistonda modernizasiyalash jarayonlarining asosiy yo'nalishlari. 2017-2021 yillarda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari.

Talab tushunchasi. Individual talab va bozor talabi. Talab qonuni. Giffen samarasi. Talab egri chizig'i. Talab miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: iste'molchi didi, bozordagi iste'molchilar soni, ularning pul daromadi, o'rnini bosuvchi tovarlar narxi, kelajakda narx va daromadlarning o'zgarishi ehtimoli. Oliy va past toifali tovarlar. Engel qonuni. Engel egri chizig'i.

Taklif tushunchasi. Taklif qonuni. Taklif egri chizig'i. Taklif miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: resurslar narxi, ishlab chiqarish texnologiyasi, soliqlar va subsidiyalar, boshqa tovarlar narxi, narx o'zgarishining kutilishi, ishlab chiqaruvchilar soni. Iqtisodiy resurslarga talab va taklifning xususiyatlari.

Talab va taklif miqdorlarining mos kelishi. Qisqa va uzoq davrlarda talabning o'zgarishi. Bozor muvozanati. Xususiy va umumiy muvozanatlik. Talab va taklif egiluvchanligi va ularni belgilab beruvchi omillar.

Iste'molchi hatti-harakati nazariyasi. Iste'molchining afzal ko'rishi. Naflilik funksiyasi. So'nggi qo'shilgan naflilik. Naflilikni maksimallashtirish qoidasi. Iste'molchining muvozanatli holati. Befarqlik egri chizig'i. Befarqlik kartasi. Iste'molchi byudjetining cheklanganligi. Byudjet chizig'i. Narx va daromadlar o'zgarishining iste'molchi tanloviga ta'siri.

Raqobat vujudga kelishi to'g'risidagi turli nazariyalar. Raqobatning mohiyati va ob'ektiv asoslari. Raqobat mazmuniga turli tomondan yondashuv. Raqobatning vazifalari. Raqobatning turlari: tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat. Raqobat shakllari: sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya va sof monopoliya. Raqobatlashish usullari: narx vositasidagi va narxsiz raqobat, g'irrom va halol raqobat. Demping narxlarni qo'llash. Raqobat kurashining zamonaviy shakllari: mahsulot sifatini oshirish, mahsulotni yangilash, xizmat sifati, reklama, servis, marketing va h.k.

Monopolianing mohiyati va uning vujudga kelish sabablari. Ishlab chiqarish va kapitalning to'planishi va markazlashuvi. Monopolialarning turlari: sof monopoliya, oligopoliya, monopsoniya. Tabiiy monopoliyalar. Legal va sun'iy monopoliyalar. Lerner koeffitsenti. Monopolistik birlashmalar shakllari. Monopolialarning afzalliklari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Shumpeter gipotezasi. Davlatning monopoliyaga qarshi tadbirlari. Rivojlangan mamlakatlarda monopoliyaga qarshi siyosat borasidagi tajribalar. Monopoliyaga qarshi Qonunchilik.

O'zbekistonda raqobat muhitini shakllantirish borasidagi chora-tadbirlar. Mamlakatimizda raqobat muhitini kuchaytirishning zarurligi va yo'nalishlari. Monopoliyaga qarshi qonunchilikning shakllanishi. Monopolistik korxonalarni tartibga solish usullari. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar. Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish.

Narxning mazmuni va uning ob'ektiv asoslari. Narx to'g'risidagi turli nazariyalar. Tovardagi ikki xil xususiyatlarning narxlardagi ifodasi. Narxning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxning vazifalari.

Narx turlari: ulgurji va chakana narxlar. Nufuzli, demping va dotaliyalangan narxlar. Sharhnomaviy, erkin va tartibga solinuvchi narxlar. Hududiy, milliy va jahon bozori narxlari. Narx diapazoni. Narx pariteti.

Narx tashkil topishining bozor mexanizmi. Mukammal raqobat sharoitida narxning shakplanish xususiyatlari. Sotuvchi va xaridor narxlari. Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy taklif bo'yicha narx o'zgarishi. Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Ommaviy talab bo'yicha narxning o'zgarishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. "Ergashish" va "inkor etish" holatlari. Narx bo'yicha etakchilik.

Narx siyosati va uning O'zbekistonda amalga oshirilish xususiyatlari. Narxlarni erkinlashtirish yo'llari va bosqichlari.

Tadbirkorlik faoliyatini nazariyasining rivojlanish bosqichlari. Tadbirkorlik faoliyatining mazmuni va rivojlanish shart-sharoitlari.

Tadbirkorlik faoliyatining shakllari: davlat, jamoa, xususiy, aralash va boshqa shakllar bo'g'ini. Korxonalar faoliyatining tashkil qilinishi. Aktsiyadorlik jamiyati va aktsiyadorlik kapitali. Aktsiya va uning turlari. Aktsiya kursi. Dividend va ta'sischilar foydasi. Nazorat paketi. Obligasiyalar. Marketing, uning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Menejment – korxonalarni boshqarish tizimi sifatida. Menejmentning asosiy maqsadi va vazifalari.

O'zbekistonda kichik va oilaviy biznes hamda xususiy tadbirkorlikning yanada erkinlashtirilishi, rag'batlantirilishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Hozirgi davrda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratilishi.

Tadbirkorlik kapitalining mohiyati. Tadbirkorlik kapitali va uning harakatidagi ikki tomonlama xususiyatning namoyon bo'lishi. Tadbirkorlik kapitalining funksional shakllari: pul, unumli kapital va tovar. Kapitalning harakat bosqichlari. Tadbirkorlik kapitali turli shakllarining doiraviy aylanishi.

Tadbirkorlik kapitalining aylanishi. Asosiy va aylanma kapital, ularning farqli belgilari. Kapitalning aylanish vaqt va tezligi. Asosiy kapitalni takror ishlab chiqarish: jismoniy, ma'naviy va iqtisodiy eskirishi va qayta tiklanishi. Amortizasiya va uning normasi. Jadallashgan amortizasiya. Asosiy va aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi va uning ko'rsatkichlari. Asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari. Tadbirkorlik kapitalini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, farmonlar, qarorlar va davlat dasturlarining amalga oshirilishi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari. Korxona ishlab chiqarish xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni, tarkibi va turlari. Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari va muomala xarajatlari. Ichki va tashqi xarajatlar. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar. O'rtacha va umumiylar xarajatlar. So'nggi qo'shilgan xarajatlar tushunchasi. Xarajatlarni minimallashtirish qoidasi.

Qisqa va uzoq muddatli davrda ishlab chiqarish xarajatlari. Natijalar o'zgarishiga unumdoorlik pasayib borishi qonunining ta'siri. Ishlab chiqarish miqyosining ijobjiy samarasi. Tannarx.

Korxona (firma)ning pul tushumlari va foydasi. Xarajatlar va daromadlar egi chizig'i. Zarar ko'rmaslik nuqtasi. Umumiy foya. Foya miqdoriga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Mahsulot qiymati tarkibi. Yalpi foydaning taqsimlanishi. Iqtisodiy foya va buxgalteriya foydasining farqlanishi. Me'yordagi foya. Sof foya. Foya normasi va massasi hamda ularni hisoblash. Foya normasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

Korxonalarning bankrot bo'lishi (sinishi) va sanasiya qilinishi. Korxonalar foydasini maksimallashtirish sharti va uni ko'paytirish yo'llari.

Foya miqdorini ko'paytirishda moddiy resurslarni tejashning ahamiyati. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uning ustuvor yo'nalishlarida belgilangan mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda mahsulotlari samaradorligini oshirish bo'yicha belgilangan asosiy vazifalar.

Yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari. "Ishlab chiqarishning uch omili", qo'shilgan omil unumdoorligi va boshqa nazariyalar. Mazkur nazariyalarining kamchiliklari. Yaratilgan mahsulotni taqsimlashning asosiy yo'nalishlari.

Ish haqi to'g'risida turlicha nazariyalar. Ish haqining iqtisodiy mazmuni. Nominal va Real ish haqi. Real ish haqining darajasi va o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Ish haqining tabaqalanishi. Ish haqini tashkil qilish shakllari va tizimlari. Tarif tizimi. Minimal ish haqi.

Mehnat munosabatlari. Mehnat shartnomalari. Kasaba uyushmalarining tadbirkorlar va davlat bilan o'zaro munosabatlari. Kasaba uyushmalarining ish haqi darajasini oshirish yo'llari. Ishchi kuchi talabi va taklifini o'zgartirish. Jamoa shartnomalari va ijtimoiy sug'urta tizimi. Ochiq va yopiq turdag'i kasaba uyushmalarining ish haqi darajasiga ta'siri. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning roli.

Davlatning ish haqi siyosati. Respublikada mehnatni rag'batlantirish, ish haqini ko'paytirish va aholi daromadlari o'sishini ta'minlashga qaratilgan siyosatni amalga oshirilishi. 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini izchil oshirish.

Agrar munosabatlar va ularning bozor tizimidagi xususiyatlari. Yerning resurs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari. Yerning tabiiy va iqtisodiy unumdoorligi. Qishloq xo'jaligidagi takror ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Yer – mulkchilik va xo'jalik yuritish ob'ekti. Yerga egalik va yerdan foydalanish huquqi.

Yer rentasi mazmuniga bo'lgan turli xil yondashuvlar va yer rentasining tarixiy shakllari. Yer rentasining mazmuni va turlari: differentsial renta, absolyut renta, monopol renta, undirma sanoat va qurilish uchastkalaridan olinadigan renta. Ijara haqi. Yerning narxi va uni belgilovchi omillar.

Agrosanoat integrasiyasi. Agrobiznes va uning turlari. Dehqon va fermer xo'jaliklari. Agrofirma, agrosanoat kombinasi.

O'zbekistonda agrar islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekistonda erga mulkchilik munosabatlari. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash choralar. Tomorqa

xo'jaliklarining kengaytirilishi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi tarkibiy tuzilishini takomillashtirish. 2022-2026 yillarda qishloq joylarda ishlab chiqarishni modernizasiyalash va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va milliy iqtisodiyotning shakllanishi. Milliy iqtisodiyotning mazmuni va uning tuzilishi. Makroiqtisodiyot. Makroiqtisodiy tahlil va uning vazifalari. Asosiy makroiqtisodiy ko'satkichlar.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish. Milliy mahsulotning iqtisodiy mazmuni va uning harakat shakllari. Yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot. Nominal va Real yalpi ichki mahsulot. Narx indeksi. Yalpi ichki mahsulotning tarkibiy tuzilishi. Sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad. Xufyona iqtisodiyot, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari. Milliy mahsulot (YAIM)ni ko'paytirish omillari va yo'llari.

Milliy hisoblar tizimi. YaIMni hisoblashga qo'shilgan qiymatlar bo'yicha yondashuv. YaIMni hisoblashga sarf-xarajatlar bo'yicha yondashuv. Uy xo'jaliklarining iste'mol sarflari. Investision sarflari. Davlat sarflari. Chet elliklarning sarflari. YaIMni hisoblashga daromadlar bo'yicha yondashuv.

O'zbekiston iqtisodiyoti etakchi tarmoqlarini modernizasiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lamenti kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikasiyalash milliy mahsulotni ko'paytirishning ustivor yo'nalishi sifatida.

Yalpi talab tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi talab egri chizig'i. Yalpi talab miqdoriga ta'sir etuvchi omillar: iste'mol sarflaridagi o'zgarishlar, investision sarflari, davlat sarflari, sof eksportdagi o'zgarishlar.

Yalpi taklif tushunchasi va uning tarkibi. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi taklif egri chizig'idagi yotiqlik, oraliq va tik kesmalar. Yalpi taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi omillar: resurslar narxining o'zgarishi, samaradorlikning o'zgarishi, huquqiy me'yorlarning o'zgarishi.

Yalpi talab va yalpi taklif o'rtaqidagi muvozanat va uning o'zgarishi. AD-AS modeli. Yalpi talab va yalpi taklif egri chiziqlarining kesishishi. Xrapovik samarasi. Milliy bozorning to'yinganlik darajasi. Taqchillikning iqtisodiy tabiatini va uni bartaraf qilish yo'llari.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etib turgan va ayrim mamlakatlar o'rtaida ziddiyat kuchaygan hozirgi sharoitda yalpi talabning qisqarishi. Yalpi talabning oshishini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari.

Iste'molning mazmuni va uning turlari. Iste'mol fondi va iste'mol sarflari. Jamg'arma va uning maqsadi. Iste'mol va jamg'arma o'rtaqidagi nisbatning o'zgarishi. Iste'mol va jamg'arma darajasini belgilovchi omillar. Iste'mol va jamg'arma funksiyasi. Iste'mol va jamg'arma hajmiga daromaddan tashqari ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Iste'mol va jamg'armaga moyillik, o'rtacha moyillik, keyingi qo'shilgan moyillik hamda ularni aniqlash.

Jamg'arishning mazmuni va uning manbalari. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadidagi jamg'arish. Jamg'arish normasi. Nominal va Real jamg'arish.

Investitsiyalarning mazmuni va vazifalari. Investitsiyalarning manbalari va tuzilishi. Investitsiyalarga sarflar darajasini belgilovchi omillar. Yalpi va sof Investitsiyalar. Yalpi Investitsiya va amortizasiya nisbati o'zgarishining iqtisodiyotga ta'siri. Investitsiya funksiyasi.

Jamg'arma va Investitsiya o'rtaqidagi nisbat. Jamg'arma va Investitsiya o'rtaqidagi muvozanatning klassik va keynscha modellari, ular o'rtaqidagi farqlar.

O'zbekistonda investision faoliyatni ta'minlash va uning shart-sharoitlari. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda ichki Investitsiya manbalarni safarbar etish va chet el Investitsiyalarini jalb qilishning ahamiyati. Tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay Investitsiya muhitining yaratilishi va takomillashtirilishi. 2022-2026 yillarda ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, transport-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol Investitsiya siyosatini olib borish.

Iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni va ko'satkichlari. Iqtisodiy taraqqiyotning iqtisodiy o'sishdan farqli jihatlari. Iqtisodiy taraqqiyotning ekstensiv va intensiv turlari. Iqtisodiy o'sish nazariyalari, kontsepsiya va modellari. Iqtisodiy o'sishning keynscha va neokeynscha modellari. Kobb-Duglas modelining mazmuni. R.Xarrod va E.Domar modellari. V.Leontevning "xarajatlar-

natijalar" modeli. "Nol darajadagi iqtisodiy o'sish" kontsepsiysi.

Iqtisodiy o'sishning mazmuni, mezonlari va ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish sur'ati. "70 miqdori qoidasi". Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy o'sishning omillari. Keyingi ko'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdonligi ko'rsatkichlari. Real mahsulot o'sishini aniqlab beruvchi omillar.

Milliy boylik va uning tarkibiy qismlari. Moddiy-buyumlashgan, nomoddiy (intellektual) va tabiiy boylik.

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va iqtisodiy o'sish muammolari. Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy, moddiy va moliyaviy resurslardan tejab-tergab foydalanishning ahamiyati.

Iqtisodiy muvozanat tushunchasi. Umumiqtisodiy va xususiy muvozanatlik. Turg'un va muttasil rivojlanib boruvchi muvozanatlik. Iqtisodiy muvozanatlilik darajasini aniqlash usullari. Iqtisodiy muvozanatning amal qilish tamoyillari va namoyon bo'lish shakllari.

Iqtisodiy mutanosiblik va uning turlari. Mutanosibliklarning tasniflanishi. Mutanosibliklarni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyotning muvozanatli rivojlantirilishi.

O'zbekistonda iqtisodiyotning tarkibiy o'zgartirish, diversifikasiyalash modernizasiyalash asosida mutanosibli rivojlantirilishi. Makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatining amalgamashirilishi. Harakatlar strategiyasi bo'yicha milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatshn sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish.

Iqtisodiy rivojlanishdagi nomutanosibliklar va ularning namoyon bo'lish shakllari. Iqtisodiyotning tsiklli rivojlanishi. Iqtisodiy tsikl fazalari. Tsiklik tebranishlar.

Iqtisodiy tsikl nazariyalar. Eksternal va Internal nazariyalar. Sof monetar nazariya. Etarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi. Jamg'arish nazariyasi. Psixologik nazariya. Iqtisodiy tsikl turlari.

Iqtisodiy inqirozning mazmuni, sabablari va turlari. Pul-kredit sohasidagi inqiroz, valyuta inqirozi, birja inqirozi, ekologik inqiroz, tarmoqlar inqirozi, tarkibiy inqiroz, agrar inqiroz. Davriy, oraliq, nomuntazam inqirozlar. Ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlar.

2008 yilda kelib chiqqan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari. Rivojlangan mamlakatlarning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan chiqish borasidagi chora-tadbirlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar.

Ishchi kuchining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni. Ishchi kuchining takror ishlab chiqarilishi. Ishchi kuchining miqdor va sifat jihatdan aniqlanishi. FTTning ishchi kuchini sifat jihatdan takomillashuviga ta'siri. Nufus qonuni. Aholining tabiiy o'sishi. Ishchi kuchi migratsiyasi va uning shakllari.

Ishchi kuchi bozori. Ishchi kuchiga talab va taklif hamda uni aniqlovchi omillar. Ishchi kuchining nafliligi va qiymati. Ishchi kuchi bozorining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Fillips egri chizig'i. Ishchi kuchining ayrim sohalardan bo'shashi va uni qayta taqsimlashning bozor mexanizmi.

Ishchi kuchi bandligi to'g'risida turli xil nazariyalar. Neoklassik, keynscha, monetaristik, institusional-sosiologik maktab kontsepsiyalari. Shartnomaga asoslangan bandlik nazariyasi. Bandlik modellari. Moslashuvchan ishchi kuchi bozori kontsepsiysi.

Ihsizlik va uning turlari. Friktsion, tarkibiy va tsiklik ihsizlik. Institusional, texnologik, hududiy, yashirin, turg'un ihsizlik. Ihsizlikning tabiiy darajasi. Ihsizlik darajasi va uni aniqlash. Ihsizlikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari. A.Ouken qonuni. Ihsizlik va inflyasiyaning o'zaro bog'liqligi.

O'zbekistonda 2022-2026 yillarda ishchi kuchi bandligini ta'minlash, ihsizlik darajasini kamaytirish, ishchi kuchi bozori mutanosibligi va infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Moliyaning mazmuni va ahamiyati. Moliyaviy munosabatlarning ob'ektlari va sub'ektlari. Moliyaning vazifalari. Moliya tizimi va uning bo'g'inlari. Davlat byudjeti va uning moliyaviy resurslarni shakllantirishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi.

Davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi hamda ularning egri chizig'i. Byudjet

taqchilligi va davlat qarzları, ularning iqtisodiyotga ta'siri. Davlat ichki qarzi. Davlat krediti. Davlat tashqi qarzi. 2022-2026 yillarda O'zbekistonda davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar va uning vazifalari. Soliq solish tamoyillari. Soliq imtiyozlari. Soliqlarning turkumlanishi. Laffer egri chizig'i. Soliq yuki va uning darajasini aniqlash. Soliq yukining taqsimlanishi. Moliyaviy siyosat. Fiskal (soliq-byudjet) siyosat.

O'zbekistonda soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda unifikasiya qilish.

Pul muomalasi. Pul tizimi va uning tarkibiy qismlari. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul muomalasi qonunlari. Pulning aylanish tezligi. Pul miqdorini aniqlashga turlicha yondashuvlar. MV=PQ tenglamasining amal qilishi. Pul agregatlari. Pul bozorida talab va taklif. Pul taklifi va uning multiplikatori.

Inflyasiya va uning kelib chikish sabablari. Inflyasiya darajasi va sur'ati. Talab va taklif inflyasiyasi. Inflyasiya turlari: o'rmalab boruvchi, jadal va giperinflyasiya. Inflyasiyaning ijtimoiy-Iqtisodiy okibatlari. Davlatning inflyasiyaga karshi siyosati.

Kreditning mohiyati, vazifalari va turlari. Kredit munosabatlarining ob'ektlari va sub'ektlari. Kredit resurslarining manbalari. Kredit berish tamoyillari. Foiz stavkasi va uning darajasini aniqlovchi omillar. Kredit-pul tizimini davlat tomonidan tartibga solish.

Banklarning Iqtisodiy mazmuni. Bank tizimi. Markaziy bank va uning vazifalari. Tijorat bankpari va ularning vazifalari. Bank operasiyalari va bank foydasining hosil bo'lishi. Bank tizimining takomillashtirilishi. IS-LM modelida byudjet-soliq va pul kredit siyosati.

O'zbekistonda milliy valyutani mustahkamlash siyosatining amalga oshirilishi. So'mning xarid quvvatini oshirib borish va barqarorligini ta'minlash. Inflyasiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish. Pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borish. Milliy valyuta almashuv kursining barqarorligiga erishish. 2017-2021 yillarda ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash.

Iqtisodiyotni tartibga solishning mohiyati va zarurligi. Iqtisodiyotni tartibga solishning klassik, monetaristik, keynscha nazariyalarini.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi. Davlatning iqtisodiy o'rni va vazifalari: bozor munosabatlari qatnashchilarini huquqiy himoyalash, raqobatchilik muhitini vujudga keltirish; resurslar, mahsulotlar va daromadlarni qayta taqsimlash; iqtisodiyotning va pul muomalasining barqarorligini ta'minlash; tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish. Fan - texnika taraqqiyoti, tarkibiy, ijtimoiy va mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda davlatning o'rni.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi bevosita va bilvosita usullari. Iqtisodiyotning davlat sektori va uning chegaralari. Davlat buyurtmalari va davlat xaridlari. Iqtisodiyotni bevosita tartibga solishning ma'muriy vositalari. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi. Pul-kredit siyosati. Monetar siyosati. Byudjet siyosati. Davlat iqtisodiy dasturlari. Tashqi iqtisodiy usullari.

Hozirgi sharoitda davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roliga qarashlarning o'zgarishi. O'zbekistonda 2022-2026 yillarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish vazifalari.

Aholi daromadlari, ularning turlari va shakllanish manbalari. Nominal va Real daromad. Daromadlarning tabaqlanish sabablari va omillari. Turmush darajasi va sifati. Turmush darajasi va qashshoqlikning ko'satkichlari. Oila byudjeti: daromadlar va xarajatlar tarkibi. Farovonlikning eng quyi chegarasi. Turmush tarzi. Yashash minimumi. Iste'molchi savatchasi.

Daromadlar tengsizligi va uning darajasini aniqlash. Lorents egri chizig'i. Ditsel va jini koefisientlari. Kuznes gipotezasi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligini keltirib chiqaruvchi umumiy omillar.

Daromadlarni davlat tomonidan qayta taqsimlash g'oyasi, maqsadi va dastaklari. Ijtimoiy

to'lovlar. Ijtimoiy siyosat. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalashning asosiy yo'nalishlari. Ichki iste'mol bozorini himoya qilish. Aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash. Aholining Real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish.

Jahon xo'jaligining tashkil topishi, bosqichlari va asosiy belgilari. Jahon xo'jaligi sub'ektlari. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. Ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi. Xalqaro mehnat taqsimoti. Iqtisodiy o'zaro bog'liklikning o'sishi va bevosita xalqaro ishlab chiqarishning shakllanishi. Iqtisodiyotning baynalminallahuvida FTT va transmilliy kapitalning o'rni.

Globallashuv jarayonining mohiyati va asosiy yo'nalishlari. Jahon xo'jaligi globallashuvi jarayonlarining ziddiyatlari. Turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi. Boy va qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi farqning kuchayishi. Ekologik halokat tahdidlarining kuchayib borishi. Turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining farqlanishi. Hozirgi davrdagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelishiga globallashuv jarayonlarining ta'siri.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakllari. Kapitalning xalqaro harakati. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi. Fan-texnika yutuqlarining xalqaro ayrboshlanishi. Jahon infratuzilmasining rivojlanishi.

Jahon xo'jaligi aloqalarini xalqaro tartibga solish. Moliya, valyuta va kredit, jahon savdosi sohalaridagi tartibga soluvchi tuzilmalar.

O'zbekistonda 2022-2026 yillarda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar, davlat mustaqilligi, suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil ko'shnichilik muhitini shakllantirish.

Xalqaro iqtisodiy integrasiya jarayonlari to'g'risidagi turlicha nazariyalar va ularning asosiy yo'nalishlari. Xalqaro iqtisodiy integrasiyaning mazmuni. Xalqaro iqtisodiy integrasiyaning asosiy shakllari. Xalqaro iqtisodiy integrasiya jarayonini taqozo qiluvchi omillar. Jahondagi asosiy integrasion guruhlarning amal qilish xususiyatlari. Ochiq iqtisodiyot va uning o'ziga xos belgilari.

Davlatlararo iqtisodiy integrasiyaning rivojlanishidagi shart-sharoitlar. Turli mintaqalardagi asosiy integrasion guruhlar. Evropa Ittifoqi (EI), Erkin savdo to'g'risida Shimoliy Amerika bitimi (NAFTA), Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assosiasiyasi (ASEAN), mustaqil davlatlar Hamdo'stligi (MDH).

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga qo'shilishining shart-sharoitlari. Respublikaning jahon xo'jaligiga integrasiyalashuvining global, transkontinental, mintaqalararo, mintaqaviy darajalari. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

O'zbekistonning turli mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli ikki tomonlama hamkorlik aloqalarining kuchayib borishi, mamlakatimizda ochiq industrial iqtisodiy hududlarning rivojlanishi. O'zbekistonning yaqin qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligining kuchayishi.

Xalqaro savdo to'g'risidagi turli xil nazariyalar. Mutlaq ustunlik va qiyosiy ustunlik nazariyalar. Xeksher-olin-Samuelson modeli. Ishlab chiqarish omillari nisbati nazariyasi. Ishchi kuchi malakasi modeli. Muqobil xarajatlar modeli. Tovarning hayotiy tsikli nazariyasi.

Xalqaro savdoning mazmuni. Eksport va import, ular o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi. Taqqoslama eksport ixtisoslashuvi koeffisienti. Eksport kvotasi. Eksport va import multiplikatori. Eksport va import hajmi o'zgarishining yalpi milliy ishlab chiqarish hajmiga ta'siri. Xalqaro savdoning xususiyatlari. Protektsionizm va erkin savdo siyosatlari. Eksportni rag'batlantirish usullari.

To'lov balansi va uning tarkibi. Tashqi savdo balansi. Absorbtsiya. Kapital harakati balansi. Rasmiy zahiralarning asosiy ko'rinishlari. Rasmiy zahiralar bo'yicha operasiyalar. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining vujudga kelishida tashqi qarz va tashqi savdo balansidagi nomutanosibliklar kuchayishining ta'siri.

Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Milliy va xalqaro valyuta tizimi. Jahon valyuta tizimining rivojlanish bosqichlari: oltin standart, oltin-devizli va suzib yuruvchi valyuta tizimi. Valyuta kursi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Xarid qilish layoqati pariteti nazariysi.

Valyuta-moliya sohasidagi davlatlararo tashkilotlar faoliyatining rivojlanishi. Xalqaro valyuta fondi. Evropa valyuta tizimi. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki. Xalqaro moliyaviy korporasiya. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti. Evropa tiklanish va taraqqiyoti banki. Osiyo taraqqiyot banki.

“IQTISODIYOT NAZARIYASI” FANIDAN DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARINING ASOSIY SAVOLLARI

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh masalasi nima?
2. Ehtiyoj nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
3. Iqtisodiy resurs tushunchasiga va uning turlariga ta'rif bering.
4. Nima uchun hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va etkazib berish insonning turli xil faoliyatlari ichida eng asosiyлари hisoblanadi?
5. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat? U boshqa iqtisodiy fanlar ichida qanday o'rinn tutadi?
6. Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida shakllanishida qanday ilmiy maktab va yo'nalishlar vujudga kelgan?
7. Iqtisodiyot nazariyasining qanday vazifalari mavjud? Bu vazifalarning bugungi kundagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
8. Iqtisodiy qonunlar nima va ularning qanday turlari mavjud? Iqtisodiy qonunlarning iqtisodiy kategoriyalardan farqi nimada namoyon bo'ladi?
9. Iqtisodiyot nazariyasini o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
10. Makroiqtisodiy tahlil bilan mikroiqtisodiy tahlil o'rtaqidagi farq nimadan iborat?
11. Ishlab chiqarish omillari nimalardan iborat?
